



ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-May 2025 yil  
Ma'qullandi: 10- May 2025 yil  
Nashr qilindi: 15-May 2025 yil

KEYWORDS

*yevroobligatsiyalar, tijorat banklari, kapital jalb qilish, xalqaro moliya bozori, investitsiya, likvidlik, moliyaviy barqarorlik.*

**O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA  
YEVROBONDLARDAN FOYDALANISHNING HOLATI VA  
ULAR ORQALI KAPITALNI JALB QILISHNING  
AFZALLIKLARI VA MUAMMOLARI**

**Minnurov Bunyod Akmal o'g'li**

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti  
„Tijorat banklarini boshqarish“ mutaxassisligi  
magistratura talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15424824>

ABSTRACT

*Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarida yevrobondlardan foydalanishning amaldagi holati tahlil qilinadi. Yevrobondlar — bu xalqaro moliya bozorlari orqali kapital jalb qilishning muhim vositalaridan biri bo'lib, banklar uchun uzoq muddatli, past foizli va diversifikatsiyalangan moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Annotatsiyada yevrobondlar orqali kapital jalb qilishning afzalliklari, xususan, xalqaro investorlarga chiqish, kredit reytingining oshishi, bank likvidligini mustahkamlash kabi jihatlar yoritiladi. Shuningdek, bu jarayondagi muammolar — tartibga solishdagi cheklovlar, bozor ishtirokchilarining ehtiyotkorligi, va yuqori tranzaksiya xarajatlari ham tahlil qilinadi. Tadqiqotda banklar tomonidan yevrobond chiqarish tajribalari asosida ularning iqtisodiy samaradorligi baholanadi hamda kelgusidagi istiqbolli yo'nalishlar tavsifiya etiladi.*

Jahon miqyosida moliyaviy bozorlarda integratsiya jarayonlari jadallashgan bir paytda, milliy iqtisodiyotlar, ayniqsa bank-moliya institutlari uchun xalqaro kapital bozorlariga chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Global moliyaviy resurslar oqimini jalb qilish, xorijiy investitsiyalarni faollashtirish, iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishda yevrobondlar (yevroot obligatsiyalar) muhim vosita sifatida tan olinmoqda. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham yevrobondlar orqali kapital jalb qilish masalasi strategik ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'zining bank-moliya tizimini bozor iqtisodiyoti talablariga mos holda isloh qilish, kapital bozorlarini shakllantirish va chet el investitsiyalarini jalb etish borasida muhim qadamlar tashladi. Xususan, so'nggi yillarda respublika banklari tomonidan xalqaro moliya bozorlariga chiqish, xorijiy investorlar ishonchini qozonish va o'z faoliyatini diversifikatsiya qilish maqsadida yevrobondlar chiqarish bo'yicha dastlabki tajribalar orttirilmoqda. 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ilk yevrobond chiqarishi, undan keyin tijorat banklari — "O'zmilliybank", "Ipoteka bank", "Asaka bank" kabi moliyaviy institutlar tomonidan yevrobondlar joylashtirilishi milliy moliya sektorining yangi bosqichga o'tayotganidan darak beradi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy bank tizimlarining xalqaro moliyaviy integratsiyasini ta'minlash, ularning kapital bazasini mustahkamlash, likvidlik va barqarorligini oshirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun bu yo'nalishlarda innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish strategik muhim hisoblanadi. Ana shunday zamonaviy vositalardan biri — yevrobondlar bo'lib, ular banklar uchun uzoq muddatli va barqaror kapital jalb qilish manbai hisoblanadi.

Yevrobond — bu xalqaro moliyaviy instrument bo'lib, emitent (chiqaruvchi) mamlakatidan tashqarida, odatda xorijiy valyutada joylashtiriladi. Yevrobondlar orqali kapital jalb qilish banklar uchun bir necha muhim afzalliklarni taqdim etadi: uzoq muddatli likvid resurslarga ega bo'lish, xalqaro reyting agentliklarining e'tiborini tortish, xorijiy investorlar bilan aloqalarni kengaytirish, moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash, hamda ichki bozordagi likvidlik muammolarini hal qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, xalqaro moliyaviy bozorlarda ishtirok etish banklarning institutsional salohiyatini oshirish, risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga mos faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, yevrobondlar orqali kapital jalb qilish o'ziga xos xavflar va muammolar bilan ham birga kechadi. Ulardan eng muhimi — xorijiy valyuta bo'yicha majburiyatlarning ortishi, valyuta kursining o'zgarishiga bog'liq risklarning ko'payishi, emissiya xarajatlarining yuqoriligi va xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlariga muvofiqlik talablaridir. Bundan tashqari, investorlar ishonchini qozonish uchun banklar xalqaro reytingga ega bo'lishlari, mustahkam korporativ boshqaruv tizimiga ega bo'lishlari, shaffoflik va ochiqlik tamoyillariga qat'iy amal qilishlari lozim. Mazkur talablar mamlakatdagi ayrim banklar uchun hali ham muayyan murakkabliklarni tug'dirishi mumkin.

O'zbekiston bank tizimida yevrobondlar orqali kapital jalb qilish hali rivojlanish bosqichida bo'lib, bu yo'nalishda ilk bosqichlarda orttirilgan tajriba keyingi bosqichlarda takomillashtirilmogda. Masalan, 2021-yilda "Ipoteka bank" tomonidan 300 million AQSh dollari miqdorida yevrobondlar joylashtirilgan bo'lsa, 2023-yilda "Asaka bank" ham ilk marta xalqaro obligatsiyalar chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu yutuqlar bank tizimining xalqaro maydonda faol ishtirok etishiga va moliyaviy mustaqillikni ta'minlashiga xizmat qilmoqda. Biroq, ushbu jarayonlar hali keng qamrovli va barqaror yo'lga qo'yilmagan. Yevrobondlar orqali kapital jalb qilishda nafaqat texnik, balki institutsional, huquqiy va iqtisodiy muammolar mavjud.

Shu o'rinda savol tug'iladi: yevrobondlar orqali kapital jalb qilish O'zbekiston bank tizimi uchun qanchalik foydali va real imkoniyatlarni taqdim eta oladi? Ularning amaldagi holati qanday va qanday muammolar ularni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda? Ushbu ilmiy maqola aynan shu savollarga javob izlashga, mavjud tajribalarni tahlil qilishga va istiqbolli yo'nalishlarni belgilashga qaratilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, yevrobondlar orqali kapital jalb qilish mexanizmlarini chuqur o'rganish, mavjud afzallik va kamchiliklarni tahlil qilish orqali mamlakat tijorat banklari uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, bank sektorining barqarorligi, investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro moliya bozorlaridagi nufuzi oshishiga xizmat qiladi.

Mazkur maqola doirasida yevrobondlarning iqtisodiy mohiyati, ularning xalqaro moliya bozorlaridagi o'rni, O'zbekiston tajribasida qanday qo'llanilayotgani, ular orqali kapital jalb

qilishdagi asosiy afzalliklar va muammolar keng yoritiladi. Bundan tashqari, maqolada ilgari surilayotgan tahliliy natijalarga asoslangan holda, O'zbekiston tijorat banklarining yevrobondlar orqali kapital jalb qilish jarayonini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham keltiriladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, 2024-yil 20-dekabr kuni faol tadbirkorlar bilan uchrashuvda davlatimiz rahbari shunday dedi: "Tadbirkorlikni rivojlantirish – biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam."<sup>1</sup> Shuningdek, 2024-yil 30-may kuni "Asakabank" va Biznesni rivojlantirish bankining investitsiya faoliyati bo'yicha taqdimotida Prezident banklarning yangi vazifalarini belgilab berdi: "Banklar o'z ishini yangicha tashkil qilib, faqat kredit ajratadigan markaz emas, balki o'zi istiqbolli loyihalarni amalga oshiradigan va ularni tayyor biznes sifatida tadbirkorlarga taqdim etadigan zamonaviy investitsiya-tijorat tuzilmasiga aylanishi maqsadga muvofiq"<sup>2</sup>..

Xususan, banklarning resurs bazasini mustahkamlashda yevrobondlardan foydalanish zamonaviy iqtisodiyot talablariga javob beruvchi dolzarb masaladir. Mazkur mavzu milliy bank tizimining barqarorligini oshirish, xalqaro moliya bozorlariga chiqish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun strategik ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri bank-moliya tizimini mustahkamlash va uning xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyasini chuqurlashtirishdan iboratdir. Milliy bank tizimini raqobatbardosh va barqaror qilish, uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish, shu jumladan yevrobondlar kabi xalqaro moliyaviy instrumentlardan foydalanish zarurati ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda yevrobondlar uzoq muddatli moliyalashtirish vositasi sifatida keng qo'llanilib, tijorat banklari va korporatsiyalar uchun muhim investitsiya jalb etish manbai hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda yevrobondlar bozori yuqori darajada rivojlangan bo'lib, ular kapital bozorining samarali ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu bo'limda AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarning yevrobondlardan foydalanish bo'yicha tajribasi hamda ularning modellari tahlil qilinadi.

AQSh tajribasi oladigan bo'lsak global obligatsiyalar bozori yetakchisi hisoblanadi AQSh dunyodagi eng yirik yevrobondlar bozori hisoblanadi. Bu yerda banklar, davlat tashkilotlari va yirik korporatsiyalar muntazam ravishda xalqaro obligatsiyalar chiqaradi.

AQSh modelining asosiy xususiyatlari quydagilardan iborat hisoblanadi:

- Kredit reytingi yuqori bo'lgan banklar va korporatsiyalar – AQSh banklari o'z obligatsiyalarini past foiz stavkalari bilan chiqarish imkoniyatiga ega.

- Xalqaro investorlarga yo'naltirilgan bozor – AQSh yevrobondlari global miqyosda katta talabga ega.

- Federal Rezerv siyosati – AQSh Markaziy bankining foiz stavkalari yevrobondlar bozoriga bevosita ta'sir qiladi.

Misol uchun, JPMorgan Chase va Goldman Sachs kabi yirik banklar muntazam ravishda yevrobondlar chiqarib, ularni xalqaro investorlarga taklif qiladi.

Yevropa Ittifoqi tajribasi: diversifikatsiyalangan yondashuv Yevropa mamlakatlari, xususan, Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiya, yevrobondlar bozorida muhim o'ringa ega. Ushbu mamlakatlarning tijorat banklari va davlat tashkilotlari muntazam ravishda xalqaro obligatsiyalar chiqaradi.

Yevropa modelining asosiy xususiyatlari quydagilardan iborat hidoblanadi:

- Ko'p valyutali emissiya – Yevropa tijorat banklari yevrobondlarni nafaqat yevroda, balki AQSh dollari va boshqa valyutalarda ham chiqaradi.
- Yuqori ishonchlik darajasi – Germaniya va Fransiya kabi mamlakatlarda chiqarilgan obligatsiyalar investorlar uchun xavfsiz hisoblanadi.
- Yashil obligatsiyalar – Yevropada yevrobondlar ko'pincha ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladi.

Masalan, Deutsche Bank va BNP Paribas muntazam ravishda xalqaro obligatsiyalar chiqarib, ularni yirik investorlar orasida tarqatadi.

Yaponiya tajribasi nazr soladigan bo'lsak past foiz stavkalaridan foydalanish. Yaponiya tijorat banklari va korporatsiyalari yevrobondlar orqali xalqaro kapital bozorlaridan arzon resurslar jalb qilish imkoniyatiga ega. Yaponiya Markaziy bankining uzoq yillik past foiz stavkalari siyosati bunga katta ta'sir ko'rsatadi.

Yaponiya modelining asosiy xususiyatlari quydagilardan iborat hidoblanadi:

- Past foiz stavkalari – Yaponiya banklari yevrobondlarni nisbatan past stavkalarda chiqaradi.
- Valyuta diversifikatsiyasi – Banklar va yirik korporatsiyalar yevrobondlarni asosan AQSh dollarida chiqaradi.
- Moliyaviy stabillik – Yaponiya banklari uzoq muddatli investitsiyalar uchun yevrobondlarni muhim moliyaviy vosita sifatida ishlatadi.

Masalan, Mitsubishi UFJ Financial Group va Sumitomo Mitsui Banking Corporation muntazam ravishda xalqaro obligatsiyalar chiqarib, ularni yevrobondlar bozori orqali investorlarga taklif qiladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan chiqargan xulosalar quydagilar hisoblanadi:

- Yuqori kredit reytingi – Yevrobondlarni muvaffaqiyatli chiqarish uchun tijorat banklarining xalqaro reyting agentliklari tomonidan yuqori bahoga ega bo'lishi muhim.
- Ko'p valyutali obligatsiyalar – Banklar yevrobondlarni turli valyutalarda chiqarish orqali investorlar uchun qulaylik yaratishi mumkin.
- Diversifikatsiyalangan investor bazasi – Banklar xalqaro investorlarni jalb qilish uchun turli strategiyalarni qo'llashi lozim.
- Markaziy bank va davlat siyosati – Yevrobondlar bozori rivojlanishi uchun markaziy bank va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi siyosatlar amalga oshirilishi lozim.

Rivojlangan mamlakatlarning yevrobondlar bo'yicha tajribasi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari xalqaro kapital bozorlaridan samarali foydalanish orqali o'z barqarorligini oshirishi mumkin. O'zbekiston tijorat banklari ushbu mamlakatlarning ilg'or tajribasidan o'rganib, yevrobondlar chiqarish jarayonida kredit reytingini oshirish, valyutalar diversifikatsiyasini kuchaytirish va xalqaro investorlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratishi lozim.

Nazariy asoslarni kirish qismidan boshlaydigan bo'lsak Resurs diversifikatsiyasi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va risklarni kamaytirishning asosiy tamoyillaridan biridir. Tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlar o'z kapital manbalarini diversifikatsiya qilish

orqali foiz stavkalari, valyuta kurslari va iqtisodiy o'zgarishlardan kelib chiqadigan salbiy ta'sirlarni minimallashtirishga harakat qiladilar. Yevrobondlar ushbu jarayonda muhim moliyaviy instrument bo'lib, banklarning uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi va kapital strukturasi barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Resurs diversifikatsiyasining nazariy asoslari birinchi asosiy qaraydigan jihatlarimiz bu Markowitz modeli hisoblanadi. Resurs diversifikatsiyasi bir nechta nazariy yondashuvlarga asoslanadi va ulardan birinchis Portfel nazariyasi (Markowitz modeli, 1952) hisoblanadi. Bu model orqali biz portfel nazariyasi bo'yicha aktivlar diversifikatsiyasi risklarni kamaytirishga yordam beradi bu o'z o'rnida bozorni mo'tadil rivojlanishiga olib keledi. Yevrobondlar tijorat banklari va investitsion kompaniyalar uchun portfel riskini kamaytiruvchi vosita sifatida ko'riladi.

Markowitz portfeli nazariyasi (o'rtacha dispersiya tahliliga asoslangan yondashuv tasodifiy o'zgaruvchilarning kutilgan o'rtacha qiymatlari va o'zgarishlarini tahlil qilish asosida) - ishlab chiqilgan Garri Markowitzning investitsion portfelni shakllantirish metodologiyasi maqsad qilingan zarur daromad/xavf nisbati asosida aktivlarni optimal tanlash 1950-yillarda u shakllantirgan g'oyalar zamonaviy portfel boshqaruvining asosini tashkil qiladi.


Markowitz rasmiylashtirgandan so'ng, matematik nuqtai nazardan, shakllanish muammosi optimal portfel muammo edi chiziqli ostida kvadratik optimallashtirish cheklovlar. Ushbu toifadagi muammolardan biri optimallashtirish muammolari eng o'rganilgan sinflar, uchun ulardan juda ko'p samaralilari bor algoritmlar.

Mumkin bo'lgan portfellar maydonini yaratish Markowitz aktivlar sinfi vektoridan foydalanishni taklif qildi ularning o'rtacha kutilgan daromadlari va matritsasi kovariantlar. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, turli xil portfellar mavjud xavf-daromad nisbati. Tahlil ikkita mezonga asoslanganligi sababli menejer portfellarni tanlaydi.

Yoki samarali yoki yaxshilanmaydigan yechimlarni izlash orqali. Bu holda, har qanday boshqa bir parametrdan topilganidan yaxshiroq bo'lgan yechim, albatta, boshqasida yomonroq bo'ladi. Yoki asosiy mezonni tanlash bilan (masalan, hosil past bo'lmasligi kerak ma'lum o'lchamdagi) qolganlarini faqat mezon sifatida ishlatish cheklovlar.

Yevrobondlarning resurs diversifikatsiyasiga ta'siri bo'yicha bir nechta tadqiqotlar olib borilgan. Mishkin (2007) xalqaro moliya bozorlarining rivojlanishi va banklarning kapital jalb qilish strategiyalari haqida fikr bildirgan. U yevrobondlar orqali kapital jalb qilishning tijorat banklari likvidligi va barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Sharpe (1964) portfel nazariyasi asosida risklarni diversifikatsiya qilishning ahamiyatini ko'rsatib o'tgan bo'lib, bu nazariya yevrobondlar orqali bank kapitalini diversifikatsiya qilish bilan ham bog'liqdir. Reinhart va Rogoff (2010) esa davlat qarz bozorlarining barqarorligini oshirishda yevrobondlarning ahamiyatini o'rganib chiqib, ularning global moliya tizimidagi rolini tahlil qilgan.



O'zbekiston tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, Akhmedov (2020) tijorat banklarining kapital jalb qilish strategiyalarini tahlil qilib, yevrobondlarning uzoq muddatli kapital manbasi sifatidagi ahamiyatini ta'kidlagan. Uning tadqiqotida yevrobondlar tijorat banklari moliyaviy mustahkamligini oshirish vositasi sifatida qaralgan.

Yevrobondlar ilk bor 1960-yillarda Yevropada paydo bo'lgan bo'lib, bugungi kunda global moliyaviy tizimning muhim qismini tashkil etadi. Bu instrumentlar orqali banklar va korporatsiyalar xalqaro moliyaviy resurslarni jalb qilib, o'z moliyaviy salohiyatini kengaytiradi. Ularning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Ko'pincha AQSh dollari, yevro yoki boshqa barqaror valyutalarda joylashtiriladi;
- Investorlar soni keng, geografiyasi esa xilma-xil bo'ladi;
- Odatda, uzoq muddatli (5-10 yil) bo'ladi.

Yevrobondlar banklar uchun qulay moliyalashtirish vositasi bo'lib, ularning likvidligi va kredit faoliyatini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ushbu instrumentdan foydalanish moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash va xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyalashish uchun zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi moliyaviy sektori 2017-yildan boshlab bosqichma-bosqich isloh qilinmoqda. Banklar faoliyatida ochiqlik, raqobatbardoshlik va kapital bozorlari bilan integratsiya darajasi ortib bormoqda. Xususan, 2019-yilda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan ilk bor xalqaro obligatsiyalar chiqarilishi tarixiy qadam bo'ldi.

Yevrobondlar orqali xorijiy investorlar e'tiborini qozonishga va o'zlarining xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga muvaffaq bo'ldi. Biroq, bu yo'nalish hanuzgacha cheklangan banklar doirasida amalga oshirilmoqda va keng miqyosda tatbiq etilmayapti.

Yevrobondlar orqali tijorat banklari quyidagi muhim afzalliklarga ega bo'lishi mumkin:

Ichki bank bozori ko'pincha qisqa muddatli resurslarga tayanadi. Yevrobondlar esa 5–10 yil muddatga chiqariladigan, uzoq muddatli likvidlik manbai hisoblanadi.

Yevrobondlar xalqaro investorlar tomonidan sotib olinadi. Bu banklar uchun chet el investitsiyalarini jalb qilish va moliyaviy xavflarni diversifikatsiyalash imkonini beradi.

Barqaror moliyalashtirish manbalariga ega bo'lgan banklar o'z faoliyatini yanada ishonchli amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi.

Yevrobond chiqarish jarayonida banklar xalqaro reyting oladi, bu esa ularning imijini yaxshilaydi.

Yevrobondlar chiqarish bankni xalqaro moliyaviy maydonda tanitadi va uning brendini mustahkamlaydi.

Yevrobond chiqarish xalqaro auditorlar, yuridik maslahat, reyting xizmatlari, roadshow va marketing tadbirlarini talab qiladi. Bu esa banklar uchun katta moliyaviy yuk hisoblanadi.

Obligatsiyalar odatda xorijiy valyutada chiqariladi. Valyuta kursining keskin o'zgarishi bank balansiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yevrobondlar chiqarish uchun xalqaro standartlarga mos huquqiy bazaning yo'qligi, ayrim hollarda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirishdagi qiyinchiliklar muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Yangi ishtirokchilar uchun xalqaro investorlarga ishonch uyg'otish oson emas. Bu, ayniqsa, nisbatan kichik banklar uchun jiddiy to'siq hisoblanadi.

Bank tizimida xalqaro moliyaviy bozorlarda ishlay oladigan tajribali mutaxassislar yetishmasligi mavjud.

O'zbekiston bank sektorida yevrobondlardan keng foydalanishni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Yevrobondlar chiqarishga oid qonunchilikni xalqaro talablar asosida yangilash, jarayonlarni soddalashtirish kerak.

Dastlabki bosqichlarda banklar yevrobondlarini davlat kafolati ostida chiqarish orqali investorlar ishonchini oshirish mumkin.

Bank xodimlari uchun xalqaro moliya, risk menejmenti, IFRS va yevrobondlar bo'yicha trening va sertifikatlash dasturlarini yo'lga qo'yish zarur.

Xalqaro moliyaviy institutlar (Masalan, IFC, EBRD, ADB) bilan hamkorlikda texnik yordam olish orqali tajriba almashinuvini ta'minlash mumkin.

Banklar xalqaro reyting olishni odatiy amaliyotga aylantirishi, bu orqali xalqaro investorlar bilan aloqalarni mustahkamlashi lozim.

Yevrobondlar orqali kapital jalb qilish O'zbekiston tijorat banklari uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Uzoq muddatli, arzon va barqaror moliyalashtirish vositasi sifatida yevrobondlar banklarning raqobatbardoshligini oshiradi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi va xalqaro bozorlarda ishtirokini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, yevrobondlar chiqarish murakkab va mas'uliyatli jarayon bo'lib, yuqori darajadagi tayyorgarlik, xalqaro standartlarga muvofiqlik, shaffoflik va barqaror boshqaruvni talab qiladi. Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun davlat siyosati, tartibga soluvchi organlar va banklarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida bu yo'nalishni strategik rivojlantirish orqali O'zbekiston bank tizimi nafaqat ichki, balki xalqaro bozorlarda ham muvaffaqiyatli ishtirok etishga, iqtisodiy o'sish va investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

O'zbekistonning moliyaviy sektori, ayniqsa tijorat banklari so'nggi yillarda xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashishga faol harakat qilmoqda. Bu jarayonning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida yevrobondlar orqali kapital jalb qilish amaliyoti alohida o'rinni egallaydi. O'zbekiston tijorat banklarining xalqaro obligatsiyalar chiqarish tajribasi – bu nafaqat moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, balki xalqaro moliyaviy nufuzni mustahkamlash,

bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash va shaffoflikni kuchaytirish uchun katta imkoniyatdir.

Tadqiqot davomida yevrobondlar orqali kapital jalb qilishning banklar uchun quyidagi asosiy afzalliklari aniqlab olindi:

1. Uzoq muddatli moliyalashtirish manbai: Ichki bozordagi qisqa muddatli depozit resurslaridan farqli o'laroq, yevrobondlar uzoq muddatli, barqaror va nisbatan past foizli moliyalashtirish imkonini beradi.

2. Valyuta diversifikatsiyasi: Yevrobondlar odatda xorijiy valyutada chiqariladi, bu esa xalqaro to'lovlar, import/eksport operatsiyalari bilan bog'liq ehtiyojlarni moliyalashtirishda qulaylik yaratadi.

3. Xalqaro investorlarga chiqish: Yevrobondlar orqali banklar xalqaro investorlar e'tiborini tortish imkoniga ega bo'ladi, bu esa mamlakatga investitsiyaviy oqimni ko'paytirishga xizmat qiladi.

4. Reytingni oshirishga ko'mak: Yevrobond chiqarish jarayoni odatda xalqaro reyting agentliklari tomonidan baholanadi, bu banklar va mamlakat reytingining oshishiga hissa qo'shadi.

5. Korporativ boshqaruvni mustahkamlash: Yevrobond bozorlarida qatnashish banklar uchun xalqaro moliyaviy standartlarga, shaffoflik va hisobdorlik tizimlariga moslashishni talab qiladi. Bu esa umumiy boshqaruv sifatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, yevrobondlar orqali kapital jalb qilishda quyidagi muammolar va cheklolvar mavjudligi aniqlanmoqda:

1. Xarajatlarning yuqoriligi: Yevrobond chiqarish bilan bog'liq emissiya xarajatlari, huquqiy maslahatlar, reyting olish xarajatlari va marketing xarajatlari banklar uchun katta moliyaviy yuk bo'lishi mumkin.

2. Valyuta risklari: Valyutada jalb qilingan mablag'lar kurs tebranishlariga sezgir bo'lib, bu bank balansiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Huquqiy va tartibga solish muammolari: Ayni paytda yevrobond chiqarishning yuridik asoslari to'liq takomillashmagan bo'lib, xalqaro amaliyotlarga to'liq moslashtirilmaganligi ayrim to'siqlarni yuzaga keltiradi.

4. Investorlar ishonchini qozonishdagi murakkabliklar: Xalqaro bozorda raqobat yuqori bo'lib, yangi chiqayotgan banklar investorlarga o'zining barqaror va ishonchli ekanligini ko'rsatishda qiyinchiliklarga duch keladi.

5. Ichki resurslar va kadrlar salohiyatining cheklanganligi: Banklarda xalqaro moliyaviy bozorlar bo'yicha tajribali kadrlar yetishmasligi, kompleks yondashuvni talab qiluvchi yevrobond joylashtirish jarayonini murakkablashtiradi.

Shunga qaramay, yevrobondlar orqali kapital jalb qilish istiqbollari O'zbekiston uchun ijobiy baholanmoqda. Bu jarayonni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Huquqiy bazani takomillashtirish: Yevrobondlar bilan bog'liq qonunchilikni xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish va yengillashtirilgan tartiblarni joriy etish zarur.

2. Davlat tomonidan kafolatlangan ilk yondashuv: Dastlabki bosqichlarda davlat kafolati asosida banklar tomonidan chiqarilgan yevrobondlar investor ishonchini kuchaytiradi va risklarni kamaytiradi.

3. Xalqaro reytinglar bilan ishlash: Banklar xalqaro reyting agentliklari bilan faol ishlashi, o'z faoliyatining shaffofligini oshirishi zarur.

4. Professional kadrlar tayyorlash: Yevrobondlar bilan ishlay oladigan moliyaviy mutaxassislar tayyorlash, xorijiy tajribani o'rganish va ichki salohiyatni kuchaytirish zarur.

5. Marketing va investorlar bilan aloqalarni kuchaytirish: Investorlar bilan ochiq va samarali muloqot, yillik hisobotlarni xalqaro mezonlar asosida taqdim etish, investor konferensiyalarida ishtirok etish muhim ahamiyatga ega.

Yevrobondlar orqali kapital jalb qilish bugungi kunda O'zbekiston bank-moliya sektorining yangi bosqichga o'tishini anglatadi. Bu jarayon moliyaviy infratuzilmani yangilash, banklar faoliyatini diversifikatsiyalash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiyotga qo'shimcha tashqi resurslarni jalb qilishda katta imkoniyatlar yaratadi. Mazkur strategiya O'zbekistonning umumiy moliyaviy mustaqilligi va xalqaro moliyaviy tizimda o'z o'rnini topishida muhim o'rin tutadi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston tijorat banklari tomonidan yevrobondlar orqali kapital jalb qilishning amaldagi holati — bu rivojlanayotgan, ammo istiqbolli yo'nalishdir. Mazkur yo'nalishdagi dastlabki muvaffaqiyatlar, tajribalar va mavjud muammolarning tahlili asosida bosqichma-bosqich yondashuv ishlab chiqilsa, O'zbekiston xalqaro moliyaviy maydonda munosib ishtirok eta oladi. Bu esa nafaqat bank sektorining, balki umuman mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot va islohotlar yo'lida." T.: O'zbekiston, 2022. – 312 b.
2. Shavkat Mirziyoyev. "Inson qadri uchun: yangi bosqichga o'tishning muhim tamoyillari." T.: O'zbekiston, 2023. – 280 b.
3. Shavkat Mirziyoyev. "O'zbekiston 2030: strategik maqsadlar va ustuvor vazifalar." T.: O'zbekiston, 2023. – 350 b.
4. Shavkat Mirziyoyev. "Iqtisodiy islohotlar va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning yangi yo'llari." T.: O'zbekiston, 2021. – 290b.
5. Armstrong, J. S., & Fildes, R. (1995). On the selection of Error Measures for Comparisons Among Forecasting Methods. *Journal of Forecasting*, 14, 67-71.
6. Armstrong, J. S., Collopy, F., & Yokum, J. T. (2005). Decomposition by causal forces: A procedure for forecasting complex time series. *International Journal of Forecasting*, 21, 25-36.
7. Artis, M. J. (1996). How Accurate are the IMF's Short-Term Forecasts? Another Examination of the World Economic Outlook. IMF Working Paper WP/96/89.
8. <https://president.uz/oz/lists/view/7778>
9. <https://oz.sputniknews.uz/20240530/bank-kredit-mirziyoev-biznes-taqdimot-44137993.html>
10. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Финансовая\\_устойчивость](https://ru.wikipedia.org/wiki/Финансовая_устойчивость)